

**O'ZBEK AUDITORIYASINING RUS TILIDAGI “ROD”
KOTEGORIYASINI O'RGANISH METODLARI VA UNDAGI
MUAMMOLAR**

*Xalilova Aziza Alisher qizi
Samarqand davlat chet tillari institute
Sharq tillari fakulteti Filologiya va
Tillarni o'qitish (Yapon tili)*

АННОТАЦИЯ

В статье речь идёт о трудностях изучении категории рода русского языка в узбекской аудитории, и методика изучение так как в родном узбекском языке категория рода отсутствует

Annatatsiya

Maqolada o'zbek auditoriyasida rus tilidagi rod kategoriyasini ozbek tilida mavjud emasligi tufayli kelib chiqadigan o'rganishdagi qiyinchiliklar va o'rganish metodologiyasi aytildi.

Kalit so'zlar: rod, grammatik jins, metodika, rus tili, o'zbek auditoriyasi, o'rgatish, lingvodidaktika.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda rus tilini o'qib o'rganuvchilar soni kun sayin ortib borayotgani tufayli rus tili O'zbekistonda norasmiy ikkinchi til sifatida qaraladi. Rus tilini o'rganayotgan o'zbek auditoriyasi bu til yuzasidan ko'plab qiyinchiliklarga uchraydi. Bularidan biri rod kategoriyasi hisoblanadi.Grammatik rod rus tilining muhim morfologik kategoriylaridan biri bo'lib, bu hodisa o'zbek tilida bu hodisa bugungi kungach bahs munozaralarga uchraydi. Bu esa rus tilini o'rganayotgan o'zbek til auditoriyasidagilari uchun ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Djumayeva M.I. va Xudoyqulov A.E. (2024) o'z maqolalarida bu holatni rus tilidagi rod tushunchasining o'zbek tilida izchil ekvivalenti yo'qligi bilan izohlashadi [Journal of Universal Science Research, 2024, 13 iyun]. Ushbu maqolada mualliflar rus tilidagi grammatik rod kategoriyasining morfologik xususiyatlariga e'tibor qaratib, bu kategoriya rus tilida otlarning asosiy morfologik belgilaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Ular, shuningdek, rus tilida rod kategoriyasining grammatic tizimda muhim o'rin tutishini va bu kategoriya orqali til foydalanuvchilari rod identifikatsiyani ifodalashlarini qayd etadilar

Rod kategoriyasining semantik va morfologik jihatlarini o'zlashtirish o'zbek o'quvchilari uchun murakkab jarayondir. Muxammad Chutpulatov (2024) ta'kidlaganidek, bu grammatik birliklar leksik darajada ham farq qilgani bois,

o‘quvchilar noto‘g‘ri roddagi so‘zlarni ishlashiga moyil bo‘ladilar [Foreign Languages in Uzbekistan, №6 (59)]. Chutpulatov rus tilidagi rod kategoriyasining semantik jihatlarini tahlil qilib, bu kategoriya orqali til foydalanuvchilari rod identifikatsiyani ifodalashlarini ta’kidlaydi. U, shuningdek, rus tilida rod kategoriyasining grammatik tizimda muhim o‘rin tutishini takidlaydi.

Kadirova S.R. (2023) fonetik nuqtai nazardan yondashib, o‘zbek tilida rodga qarab so‘z oxirining fonetik o‘zgarishi kuzatilmasligi natijasida, rus tilidagi rodli so‘z larning talaffuzida ham xatolar yuz berishini qayd etadi. Kadirova, shuningdek, rus tilini o‘rgatishda fonetika va morfologiyaga alohida e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi, chunki bu bosqichlarda talabalar eng ko‘p qiyinchiliklarga duch keladilar. Yana bir ahamiyatli tomoni o‘zbek tilida urg‘u doimiy bo‘lib, bu rus tilidagi o‘zgaruvchan urg‘uni o‘zlashtirishda muammolar keltirib chiqaradi.. U, shuningdek, bu holat o‘quvchilarning rus tilidagi rod kategoriyasini o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishlariga sabab bo‘lishini ta’kidlayd. [Academia Science Repository, Vol. 4 No. 03, s. 165–169].

Asosiy qisim

Yuqoridagi qiyinchiliklarga qarshi, bir qator metodlar taklif etilgan. Gulyamova X.X. (2024) rus tilini o‘rgatishda innovatsion metodlarni, xususan rolli o‘yinlar, interaktiv loyihalar va multimedya resurslardan foydalanishni taklif qiladi [Multidisciplinary Journal of Science and Technology, Vol. 4 No. 2, s. 305–307]. Muallif zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rus tilini o‘rgatishda qo‘llashning nazariy asoslari va amaliy jihatlarini tahlil qiladi. Ushbu maqolada interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosidagi ta’lim, rolli o‘yinlar kabi innovatsion yondashuvlar orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, darslarga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish mumkinligi ta’kidlanadi.

Kadirova S.R quyidagi yondashuvlarni tavsiya etadi: Fonetik va morfologik mashqlarni kuchaytirish: Darslarda fonetik va morfologik jihatlarga alohida e’tibor qaratish. Talaffuz va urg‘u ustida ishlash: Talabalarni rus tilidagi to‘g‘ri talaffuz va urg‘u bilan tanishtirish. Interferensiyanı kamaytirish: O‘zbek tilining fonetik xususiyatlaridan kelib chiqadigan interferensiyanı bartaraf etish. Yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish: Talabalarning yozma va og‘zaki nutq madaniyatini oshirish. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish: Talabalarda samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. (2023 Technologica: Methodical Research Journal jurnalining 4(03) sonida, 165–169-betlarda chop etilgan)

Maqollardagi rod ifodalanishini tahlil qilish orqali o‘quvchilarda rod kategoriyasini shakllantirish samarali bo‘lishi mumkinligini Pulatova U.S. va boshqalar (2024) isbotlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, maqollar rod qarashlar va stereotiplarni aks ettirishi bilan birga, grammatik rodni ham aniq ko‘rsatadi. Mualliflar rus, ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarni tahlil qilib, bu maqollar rod bolgan qarashlar

va stereotiplarni aks ettirishi bilan birga, grammatick rodni ham aniq ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Ular, shuningdek, maqollardagi rodni ifodalanishini tahlil qilish orqali o'quvchilarda rod kategoriyasini shakllantirish samarali bo'lishi mumkinligini isbotlaydilar . [CAHIERS MAGELLANES-NS, Vol. 6 No. 2, s. 6269–6276].

Rus tilidagi rod kategoriyasini o'zbek auditoriyasiga samarali o'rgatish uchun lingvistik xususiyatlarni nazariy va amaliy jihatdan chuqur tushuntirish lozim. Bu jarayonda o'quvchilarning ona tilida mavjud bo'lмаган tushunchalarni o'zlashtirishlariga yordam beruvchi metodlardan — semantik tahlil, rolli o'yinlar, maqol tahlili va fonetik mashqlar keng qo'llanilishi lozim. Yuqoridagi tajribalarg asoslanib o'quvchilar bilan matinlar ustida tahlil qilib ishlash ,audio matinlarni eshitib tahlil qilish rod kategoriyasini o'rganishda ijobiy natija ko'rsatadi. Undan tashqari til o'rganishda real hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali o'quvchilarning nutq faoliyatini rivojlantirish samarali natija ko'rsatadi.

Tajriba:

Soni: 15 ta, 10 ta qiz, 5 ta o'g'il, 8 ta 5-sinf, 3 ta 6-sinf, 4 ta 7-sinf.

Dars soati: 1.5 soatdan haftada uch dars. Umumiy 4.5 soat .

Yuqoridagi metodlarga tayangan holda kuzatuv olib borganimda Gulyamova X.X. (2024), Kadirova S.R. (2023) va boshqa mualliflarning tavsiya etgan metodlariga tayandim.

Birinchi bosqichda o'quvchilarga qisqa diagnostik test o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning yarmi ham rodlarni ajrata olmaydi. Ayniqsa, urg'u o'zgarishi va rod qarab otlarning o'zgarishini to'g'ri anglamaslik holatlari ko'p uchradi.

Keyingi bosqichda fonetik metodlarga murojaat qilindi. Kadirova S.R. o'z maqolasida (2023) aytganidek, rus tilidagi tovush tizimini to'g'ri o'rgatish rod kategoriyasini anglashda muhim ahamiyatga ega. Shu asosda otlarning talaffuzi, urg'usi va ohangini o'rganishga e'tibor qaratildi. O'quvchilar tovushlar ketma-ketligi va urg'uni mashq qilish orqali rodni aniqlashga intilishdi.

Innovatsion metodlar esa o'quvchilarda rodni tushunish jarayonini jonlantirdi. Gulyamova X.X. (2024) ta'kidlaganidek, rolli o'yinlar va interaktiv topshiriqlar darsni jonli va tushunarli qiladi. Men ham "Rodni top!" o'yini, slaydli topshiriqlar, guruhli gap tuzish mashqlari orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minladim. Ular rodga qarab otlar va ularning atrofida to'g'ri gaplar tuzishni mashq qilishdi.

Yakuniy bosqichda test natijalari 85% gacha yaxshilanganini ko'rsatdi. Bu, shubhasiz, qo'llanilgan metodlarning samarasidir. Ayniqsa, talaffuz va urg'uni to'g'rinish orqali o'quvchilar rodli otlarni osonroq ajrata boshladi. Rolli o'yinlar esa grammatikani kontekstda qo'llashga yordam berdi.

XULOSA

Yuqorida o‘tkazilgan tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, rus tilidagi grammatic rod kategoriyasini o‘zbek tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilarga o‘rgatishda fonetik yondashuvlar va innovatsion metodlar o‘zini oqlaydi. Bu metodlar samarali bo’lib shu metodlar asosida o‘quvchilar rod kategoriyasini tushunishlari va o’rganishi osonlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Djumayeva M.I., Xudoyqulov A.E. (2024). Verbalization of Gender Category in English, Russian and Uzbek Linguistic Culture. Journal of Universal Science Research, Vol. 2 No. 6. [13 iyun].
2. Chutpulatov M. (2024). Comparative Analysis of the Semantic Features of Gender Lexis in English, Russian, and Uzbek Languages. Foreign Languages in Uzbekistan, № 6 (59).
3. Kadirova S.R. (2023). On the Question of the Phonetic Aspect of Teaching Russian as a Foreign Language to Students-Inophons from Uzbekistan. Academia Science Repository, Vol. 4 No. 03, pp. 165–169.
4. Gulyamova X.X. (2024). Using Innovative Methods in Teaching Russian Language in Uzbek Schools. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, Vol. 4 No. 2, pp. 305–307.
5. Pulatova U.S. va boshqalar (2024). Comparative Characteristics of Gender Categories in Russian, English and Uzbek on the Example of Proverbs. CAHIERS MAGELLANES-NS, Vol. 6 No. 2, pp. 6269–6276.